

**XALQARO ISO STANDARTLARINING OLIY TA'LIM
TIZIMIDAGI O'RNI**

Karimova Maftuna Furqat qizi

Oriental universiteti magistranti

***Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi xalqaro ISO standartlarining oliy ta'lim tizimidagi o'rni, ahamiyati va ularni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari yoritiladi. Globallashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlash va xalqaro talablarga mos mutaxassislar tayyorlash dolzarb vazifa bo'lib, bu jarayonda ISO standartlari, xususan sifat menejmentiga oid yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tezisdagi ISO standartlarini joriy etish orqali ta'lim jarayonlarini tizimli tashkil etish, boshqaruv samaradorligini oshirish, ichki va tashqi audit mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta'lim xizmatlari sifatini nazorat qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu standartlarning professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash, talabalar bilimni obyektiv aniqlash va ta'lim dasturlarini muntazam yangilab borishga qo'shayotgan hissiy asoslab beriladi. Xalqaro tajriba misolida ISO standartlarining akkreditatsiya va reyting tizimlari bilan uyg'un holda qo'llanilishi ko'rib chiqilib, bu orqali milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta'lim muassasalarining nufuzini oshirish va bitiruvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniyatlari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** ISO standartlari, oliy ta'lim tizimi, ta'lim sifati, sifat menejmenti, akkreditatsiya, reyting tizimi, xalqaro standartlar, ta'lim boshqaruvi, ichki audit, tashqi audit, ta'lim samaradorligi, sifat nazorati, ta'lim islohoti.*

Bugungi globallashtirish jarayonida oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Jahon miqyosida iqtisodiyot, fan va texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda ta'lim tizimi ham ushbu

o'zgarishlarga moslashishi, zamonaviy talablar asosida o'z faoliyatini takomillashtirib borishi zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro ISO standartlari oliy ta'lim tizimida sifatni boshqarish, ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish va muassasalar faoliyatini tizimli rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ISO standartlari dastlab sanoat va ishlab chiqarish sohalarida sifatni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, bugungi kunga kelib ularning qo'llanilish doirasi kengayib, ta'lim sohasi, xizmat ko'rsatish va boshqaruv tizimlariga ham faol tatbiq etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ISO standartlarining joriy etilishi ta'lim sifati barqarorligini ta'minlash, ichki jarayonlarni optimallashtirish hamda boshqaruv tizimini shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlarini to'liq safarbar etishga, resurslardan oqilona foydalanishga va strategik maqsadlarga erishishga yordam beradi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida sifat tushunchasi nafaqat bilim berish jarayoni, balki boshqaruv, monitoring, baholash va doimiy takomillashtirish jarayonlarini ham o'z ichiga oladigan keng qamrovli tizim sifatida qaralmoqda. ISO standartlari aynan shu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi va ta'lim muassasalarida tizimli sifat menejmentini joriy etish imkonini beradi. Bunda ta'lim jarayonining har bir bosqichi aniq belgilangan me'yorlar asosida amalga oshiriladi, natijalar esa doimiy ravishda tahlil qilib boriladi. Bu jarayonlar esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, uning barqarorligini ham ta'minlaydi.

Oliy ta'lim tizimida ISO standartlarining joriy etilishi, shuningdek, xalqaro integratsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Chunki ISO standartlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida tan olingan bo'lib, ularning qo'llanilishi ta'lim muassasasining xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi. Bu esa xorijiy hamkorliklarni kengaytirish, akademik almashinuv dasturlarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar sifatini yaxshilash uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada oliy ta'lim muassasalari global ta'lim bozorida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, ISO standartlari ta'lim jarayonida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytiradi. Bu esa o'z navbatida talabalar, ota-onalar va jamiyat

oldida ishonchni oshiradi. Ta'lim sifati bo'yicha aniq mezonlarning mavjudligi, o'qitish jarayonining doimiy nazorat qilinishi va natijalarning ochiq tahlil qilinishi oliy ta'lim muassasasining faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bunday yondashuv ta'lim tizimida korrupsion holatlarning kamayishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida ISO standartlarini keng joriy etib, ularni milliy ta'lim siyosatining muhim qismiga aylantirib kelmoqda. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, sifat menejmenti tizimining samarali ishlashi ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshiradi va ularning global reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashiga yordam beradi. Shu sababli, ISO standartlarini joriy etish nafaqat texnik yoki boshqaruviy masala, balki strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalish sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va sifatni oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ISO standartlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, o'quv jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu yo'nalishda hali ham hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar mavjud bo'lib, ular ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlarni talab qiladi.

Oliy ta'limda ta'lim sifatini aniqlovchi mezonlar va ko'rsatkichlarni xalqaro standartlar asosida belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ESG 2015 (Yevropa oliy ta'lim hududida sifatni ta'minlash standartlari va yo'riqnomalari), ISO 9001:2015 va ISO 21001:2018 standartlari bu borada muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur standartlar oliy ta'lim tizimida sifatni boshqarishning turli jihatlarini qamrab oladi. ESG 2015 ko'proq ta'lim jarayonining shaffofligi, talabalar ishtiroki va ichki sifat kafolatiga urg'u beradi. ISO 9001:2015 esa umumiy sifat menejmenti tizimi sifatida barcha tashkilotlar uchun universal yondashuvni taklif etadi va jarayonlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan. ISO 21001:2018 esa

aynan ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilar va boshqa benefitsiarlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan.

Ushbu standartlar o'zaro uyg'un holda qo'llanilganda oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash tizimi yanada mustahkamlanadi. Talabalarni qabul qilishdan tortib, ta'lim jarayonini tashkil etish, baholash, monitoring va tashqi sifat nazoratigacha bo'lgan barcha bosqichlar tizimli ravishda boshqariladi. Natijada ta'lim sifati oshadi, xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilanadi va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi ortadi. Quyidagi jadvalda ushbu standartlarning asosiy talablarini oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatining ko'rsatkichlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlari (ESG 2015, ISO 9001:2015 va ISO 21001:2018 asosida)¹

№	Ta'lim sifat ko'rsatkichi	ESG 2015 yondashuvi	ISO 9001:2015 yondashuvi	ISO 21001:2018 yondashuvi
1	Sifatni boshqarish tizimi	Ichki sifat kafolati tizimi	Sifat menejmenti tizimi	Ta'lim tashkiloti boshqaruv tizimi
2	Yetakchilik va boshqaruv	Strategik boshqaruv va ochiqlik	Yetakchilik va boshqaruv mas'uliyati	Uzoqni ko'zlovchi yetakchilik
3	Ta'lim jarayonini boshqarish	Talabaga yo'naltirilgan ta'lim	Jarayonli yondashuv	Dalillarga asoslangan qarorlar
4	Talabalar bilan ishlash	Talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash	Mijozlarga yo'naltirilganlik	Benefitsiarlarga e'tibor qaratish
5	Kadrlar	O'qituvchilar	Xodimlar	Xodimlar ishtiroki

¹ Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan
www.tadqiqotlar.uz

	salohiyati	malakasi va rivoji	kompetensiyasi	va rivoji
6	O'quv dasturlari sifati	Ta'lim dasturlarini tasdiqlash va monitoring	Jarayonlarni rejalashtirish	Natijaga yo'naltirilgan dasturlar
7	Axborot boshqaruvi	Ma'lumotlarni oshkoralik bilan taqdim etish	Hujjatlashtirish va tahlil	Dalillarga asoslangan boshqaruv
8	Shaffoflik va axborot	Ommaviy axborotning ochiqligi	Mijozlar bilan aloqa	Axborot xavfsizligi va himoyasi
9	Doimiy takomillashtirish	Monitoring va davriy baholash	Uzluksiz yaxshilash	Takomillashtirish va innovatsiya
10	Tashqi sifat nazorati	Tashqi akkreditatsiya	Audit va baholash	Munosabatlarni boshqarish

Yuqoridagi jadvalda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholashga xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar uchta muhim xalqaro standart keltirilgan. ESG 2015, ISO 9001:2015 va ISO 21001:2018 standartlari turli yondashuvlarga ega bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bir xil, ya'ni ta'lim sifatini oshirish va samarali boshqaruv tizimini yaratishdan iborat.

ESG 2015 standarti ko'proq akademik muhitga moslashgan bo'lib, talabalar manfaatlari, ta'lim jarayonining shaffofligi va ichki sifat kafolatiga katta e'tibor qaratadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida demokratik boshqaruv va ochiqlikni ta'minlaydi. ISO 9001:2015 esa universal standart sifatida barcha jarayonlarni tizimli boshqarishga yordam beradi. Unda mijozga yo'naltirilganlik, jarayonlarni optimallashtirish va doimiy yaxshilash asosiy o'rinni egallaydi.

ISO 21001:2018 esa aynan ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini maksimal

darajada qondirishga qaratilgan. Ushbu standartda uzoq muddatli strategik rivojlanish, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va ijtimoiy mas'uliyat muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagi natijalarga ko'ra, ushbu standartlarni integratsiyalashgan holda joriy etish oliy ta'lim tizimida sezilarli ijobiy natijalar beradi. Xususan, boshqaruv samaradorligi oshadi, ta'lim jarayoni takomillashadi, talabalar ehtiyojlari to'liqroq qondiriladi va xalqaro talablar darajasida sifat ta'minlanadi. Shu bilan birga, bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro ISO standartlarining oliy ta'lim tizimidagi o'rni tobora ortib borayotganini bugungi global ta'lim jarayonlari yaqqol ko'rsatib bermoqda. ISO standartlari ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini samarali yo'lga qo'yish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda ta'lim xizmatlari sifatini barqaror oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ISO standartlarini joriy etgan oliy ta'lim muassasalarida ichki jarayonlarning shaffofligi ortadi, resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi va ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari ancha takomillashadi. Shuningdek, bu standartlar ta'lim jarayonida doimiy takomillashtirish tamoyilini shakllantirib, o'qitish va baholash jarayonlarining obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ISO standartlari oliy ta'lim muassasalarining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga, global reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashiga va xorijiy hamkorlik aloqalarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Biroq amaliyotda ushbu standartlarni joriy etish jarayonida ayrim muammolar, jumladan, malakali mutaxassislar yetishmasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va boshqaruv tizimlarining to'liq moslashmaganligi kabi holatlar uchramoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun oliy ta'lim muassasalarida ISO standartlari bo'yicha maxsus o'quv va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish,

sifat menejmenti tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish hamda xalqaro tajribani chuqur o'rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali ISO talablariga mos boshqaruv tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish orqali sifat menejmenti tizimlarini joriy etish uchun zarur moliyaviy va texnik imkoniyatlarni kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman olganda, ISO standartlarini oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish va uning xalqaro integratsiyasini ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-sonli Farmoni
3. G'ulomov S. O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirish va inson kapitali rivoji masalalari // "Zamonaviy ta'lim muammolari" jurnali, 2024.
4. Umarova G.B., Nishonov U.I., Haydarov I.M. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida pedagog xodimlar faoliyati monitoringining mohiyati // "Pedagogik ta'lim" ilmiy jurnali, 2019.
5. Shoyev A.X. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari // "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, 2024.
6. Saidov B.S. Oliy ta'lim tizimida moliyalashtirish samaradorligini baholash usullari. Iqtisod fanlari bo'yicha dissertatsiya, TDIU, 2021.
7. Rahmonov N.N. Professor-o'qituvchi soni, ularning yuklamasi va ta'lim natijalari o'rtasidagi bog'liqlik // "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, 2020.
8. Dusanov S. Oliy ta'limni moliyalashtirish samaradorligi va professor-o'qituvchi-talaba nisbati o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik // "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali, 2026-yil, 4-jild, 2-son.
9. Woessmann L. The Effect of Class Size on Student Achievement. Economic Journal, 2005.
10. Barro R. Education and Economic Growth. Harvard University, 2013.
11. Few S. Information dashboard design: Displaying data for at-a-glance monitoring. – Burlingame, CA: Analytics Press, 2013. – 211 p.